

## O'zgarmas va o'zgaruvchi miqdorlar

### 1. Paskal tilida asosan necha xil miqdorlar ishlatalidi?

Paskal tilida asosan 3 xil miqdorlar ishlatalidi: O'zgarmas, o'zgaruvchi va jadval ko'rinishidagi miqdorlar.

### 2. Paskal tilidagi miqdorlar qanday turdag'i qiymatlarni qabul qilishi mumkin?

Paskal tilidagi miqdorlar belgili, satrli, mantiqiy va sonli turdag'i qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

### 3. Belgili o'zgarmaslar qanday yoziladi?

Belgili o'zgarmaslar bitta belgi - harf, raqam yoki maxsus belgidan iborat bo'lib, apostof ichiga olib yoziladi. Masalan: 'a'; 'B'; '9'; va hokazo.

### 4. Satrli o'zgarmaslar deb nimaga aytildi?

Belgilardan iborat satrga satrli o'zgarmaslar deyiladi. Ularning soni 0 tadan 122 ta belgigacha bo'lgan va apostrof ichiga olingan harf, raqam va maxsus belgililar ketma-ketligidan iborat. Masalan: 'Toshkent'; 'A 549'; 'B\*\*\*M'; '47%'; 'BMA = va hokazo.

### 5. Bo'sh satr deb nimaga aytildi?

Apostrof ichida hech narsa yozilmasa u **bo'sh satr** deyiladi.

### 6. Mantiqiy o'zgarmaslar qanday qiymatlardan iborat?

Mantiqiy o'zgarmaslar True (rest) yoki False (yolg'on) mantiqiy qiymatlardan iborat.

### 7. Sonli o'zgarmaslar necha turga bo'linadi?

Sonli o'zgarmaslar ikki turga bo'linadi: butun yoki haqiqiy.

### 8. Paskalda o'nli kasrlarning butun va kasr qismini ajratishda qcn>v. belgidan foydalilanadi?

Nuqtadan ". " foydalilanadi.

### 9. Paskalda qo'zg'aluvchi nuqtali sonlar deb qanday sonlarga aytildi?

Qo'zg'aluvchi nuqtali sonlar — eksponensial ko'rinishda (E yoki e yordamida) ifodalangan sonlardir.

### 11.Qo'zg'aluvchi nuqtali sonlarda mantissa nima?

Qo'zg'aluvchi nuqtali sonlarda E harfidan oldin yozilgan son **mantissa**, E harfidan keyin yozilgan son esa **tartib** deb ataladi.

### 12.Paskal tilida o'zgaruvchilarni tavsiflash qaysi xizmatchi so'z bilan boshlanadi?

Paskal tilida o'zgaruvchilarni tavsiflash uchun Var xizmatchi so'zi ishlataladi.

### 13.Paskal tilida butun qiymatli o'zgaruvchilar necha turga bo'linadi?

Butun qiymatli o'zgaruvchilar 5 turga bo'linib, bir-biridan qabul qiladigan qiymatlarining chegarasi hamda kompyuter xotirasidan egallaydigan joyi (hajmi) bilan farqlanadi.

- 14.** Paskal tilida butun qiymatli **Byte** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  
0 ... 255
- 15.** Paskal tilida butun qiymatli **Byte** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  
 $8 \text{ bit} = 1 \text{ bayt}$
- 16.** Paskal tilida butun qiymatli **ShortInt** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan ?  
-128 ... 127
- 17.** Paskal tilida butun qiymatli **ShortInt** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  
 $8 \text{ bit} = 1 \text{ bayt}$
- 18.** Paskal tilida butun qiymatli **Word** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan? 0 ... 65535
- 19.** Paskal tilida butun qiymatli **Word** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $16 \text{ bit} = 2 \text{ bayt}$
- 20.** Paskal tilida butun qiymatli **Integer** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  
-32768 ... 32767
- 21.** Paskal tilida butun qiymatli **Integer** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $16 \text{ bit} = 2 \text{ bayt}$
- 22.** Paskal tilida butun qiymatli **longInt** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan? -2147483648 ... 2147483648
- 23.** Paskal tilida butun qiymatli **longInt** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $32 \text{ bit} = 4 \text{ bayt}$
- 24.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Real** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  
 $-2,9 \cdot 10^{-39} \dots 1,7 \cdot 10^{38}$
- 25.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Real** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $6 \text{ bayt}$
- 26.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Single** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  
 $-1,5 \cdot 10^{-45} \dots 3,4 \cdot 10^{38}$
- 27.** Paskal tilida haqiqiy qivmatli Single turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $4 \text{ bayt}$
- 28.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Double** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  $-5,0 \cdot 10^{-324} \dots 1,7 \cdot 10^{308}$
- 29.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Double** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $8 \text{ bayt}$
- 30.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Extended** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  
 $-3,4 \cdot 10^{-4932} \dots 1,1 \cdot 10^{4932}$
- 31.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Extended** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha?  $10 \text{ bayt}$

- 32.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Comp** turidagi o 'zgaruvchining qiymatlar chegarasi qanday oraliqda joylashgan?  
 $-9,2 \cdot 10^{18} \dots 9,2 \cdot 10^{18}$
- 33.** Paskal tilida haqiqiy qiymatli **Comp** turidagi o 'zgaruvchining har bir belgisi egallaydigan xotira hajmi qancha? *8 bayt*
- 34.** Paskalda belgili o 'zgaruvchilar deb nimaga aytildi?  
Belgili o'zgarmaslar qiymatini qabul qiluvchi o'zgaruvchilar belgili o'zgaruvchilar deyiladi.
- 35.** Belgili o 'zgaruvchilar Paskalning qaysi so 'zi yordamida tavsiflanadi?  
Belgili o'zgaruvchilar Paskalning **Char** maxsus so'zi yordamida tavsiflanadi.  
Masalan: var harf, belgi: char;
- 36.** Satrli o 'zgaruvchilar Paskalning qaysi so 'zi yordamida tavsiflanadi?  
Satrli o'zgaruvchilarni tavsiflash uchun Paskalning String maxsus so'zi qo'llaniladi.
- 37.** Paskalda satrli o 'zgaruvchilar uchun kompyuter xotirasidan qancha joy ajratiladi?  
Satrli o'zgaruvchilar uchun kompyuter xotirasidan 255 bayt (255 ta belgi uchun) joy ajratiladi.
- 38.** Paskalda satrli o 'zgaruvchini tavsiflash uchun String[20] so 'zi ishlataligan. Bunda satrli o 'zgaruvchi uchun xotiradan qancha joy ajratilgan?  
String[20] o'zgaruvchiga xotiradan 20 bayt ajratilgan.
- 39.** Mantiqiy o 'zgaruvchilar deb nimaga aytildi?  
Mantiqiy o'zgarmas qiymatlarni qabul qiladigan o'zgaruvchilar mantiqiy **o'zgaruvchilar** deb ataladi.
- 40.** Mantiqiy o 'zgaruvchilarni tavsiflash uchun Paskalning qaysi maxsus so'zi ishlataladi?  
Mantiqiy o'zgaruvchilar Paskalning Boolean maxsus so'zi orqali tavsiflanadi.
- 41.** Agar Paskal dasturida o'zgaruvchiga tavsijlangan qiymatdan boshqa qiymat berilsa, ekranda qanday xabar chiqadi?  
«**Error 3: Unknown identifier**» (noma'lum identifikator, ya'nii bu holda noma'lum o'zgaruvchi).